
Chek Nasriddin MFYdagi xonadonlar ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

* Ayni kunlarda tumanimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

* Xususan, tumanimizning 4-sektori hududidagi Chek Nasriddin mahalla fuqarolar yig'inida bugungacha suv ta'minoti bo'yicha ishlar olib borilgan bo'lsa-da, aholiga to'liq yetib bormagan va bu muammo mahalla ahlining ko'pchiligini qiynab kelayotgan edi.

👉 Ayni kunda mazkur muammoni hal etilishi bo'yicha mahallada amaliy ishlar boshlanib ketdi. Mahallada tik quduq qazish ishlari yakuniga yetib qoldi. Bundan oldin suv tarmog'i tortish ishlari olib borilgan edi. Yaqin kunlar ichida 200 dan ortiq xonadonga ichimlik suvi kirib boradi.

2023-02-28 06:50:59